



ZAMONAVIY HIKOYALARDA AKS ETGAN IJTIMOIIY MUAMMOLAR TAVSIFI (ABDUQAYUM YO‘LDOSH HIKOYALARI MISOLIDA)

Raimqulova Sohiba Bahromovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Termiz shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

ANNOTATSIYA; *Mazkur maqolada Abduqayum Yo'ldosh hikoyalarida aks etgan ijtimoiy muammolar zamonaviy adabiy tafakkur nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining "Yetim so'z", "Yo'l qo'ymayman!..", "Parim bo'lsa..." kabi hikoyalari asosida jamiyatda keng tarqalgan rasmiyatchilik, marosimchilik, nutq va mas'uliyat o'rtasidagi nomuvofiqlik, oilaviy va ijtimoiy kommunikatsiyaning uzilishi, axloqiy zo'ravonlik hamda shaxsning ruhiy yemirilishi masalalari ochib beriladi. Hikoyalarda ijtimoiy muammo shior va ochiq publitsistik bayon orqali emas, balki sukut, tana reaksiyasi, psixologik bosim va ramziy detallar orqali ifodalanishi ko'rsatib beriladi. Muallif ijtimoiy ziddiyatni "kim aybdor?" emas, balki "muammo insonni nimaga aylantiradi?" degan estetik savol orqali talqin etadi. Tadqiqot natijalari Abduqayum Yo'ldosh hikoyachiligi zamonaviy o'zbek adabiyotida ijtimoiy-psixologik realizmning muhim namunasiga aylanganini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *hikoya janri, ijtimoiy muammo, yetim so'z, rasmiyatchilik, marosimchilik, shaxs va jamiyat, axloqiy mas'uliyat, psixologik bosim, sukut poetikasi, zamonaviy o'zbek adabiyoti*

АННОТАЦИЯ: *В статье анализируются социальные проблемы, отражённые в рассказах Абдукаюма Юлдашева, в контексте современной художественной мысли. На материале рассказов «Сиротское слово», «Я не допущу!..», «Если бы у меня была фея...» раскрываются явления формализма, ритуализма, разрыва между словом и ответственностью, разрушения семейной и социальной коммуникации, а также психологической деформации личности. Социальная проблема изображается не в форме прямой публицистики, а через молчание, телесные реакции, символические детали и внутреннее напряжение. Делается вывод о том, что проза Абдукаюма Юлдашева представляет собой значимый образец социально-психологического реализма в современной узбекской литературе.*

Ключевые слова: *жанр рассказа, социальная проблема, сиротское слово, формализм, ритуализм, личность и общество, нравственная ответственность, психологическое давление, поэтика молчания, современная узбекская литература*

ANNOTATION: *This article analyzes social problems depicted in the short stories of Abduqayum Yuldashev from the perspective of contemporary literary*



thought. Drawing on stories such as “The Orphaned Word,” “I Will Not Allow It!..,” and “If I Had a Fairy...,” the study examines formalism, ritualism, the gap between words and responsibility, the breakdown of family and social communication, and the psychological deformation of the individual. Social issues are conveyed not through explicit journalistic discourse but through silence, bodily reactions, symbolic details, and inner tension. The findings demonstrate that Yuldashev’s prose represents an important model of social-psychological realism in modern Uzbek literature.

Keywords: short story genre, social problem, orphaned word, formalism, ritualism, individual and society, moral responsibility, psychological pressure, poetics of silence, contemporary Uzbek literature

KIRISH

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida hikoya janri jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarni eng nozik va teran aks ettiruvchi badiiy shakllardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kundalik hayotda “odatiy” deb qabul qilinadigan, biroq shaxs ruhiyatini yemiruvchi ijtimoiy mexanizmlar hikoya janrida psixologik va ramziy yo‘sinda ochib berilmoqda. Shu jihatdan hikoya ijtimoiy muammoni tashqi voqea sifatida emas, balki inson ongida kechayotgan jarayon sifatida tasvirlash imkonini beradi.

Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida ijtimoiy ziddiyatlar shiorlar, balandparvoz nutqlar yoki ochiq ayblovlar orqali emas, balki sukut, tana reaksiyasi, ruhiy bosim va kommunikativ uzilishlar orqali namoyon bo‘ladi. Yozuvchi jamiyatning yetim bolalarga, oilaviy mojarolarga, ayol taqdiriga, iste’dod va sadoqatga munosabatini aynan kundalik holatlar orqali fosh etadi. Shu sababli Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy o‘zbek adabiyotida ijtimoiy masalalarning psixologik va axloqiy talqinini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil markazidagi ijodkor Abduqayum Yo‘ldoshevning “Yetim so‘z” hikoyasida jamiyatdagi ijtimoiy masalalar xo‘jako‘rsin qabilida ochib beriladi. Hikoya voqealari “Mehribonlik uyi”ga uyushtirilgan tashrif marosimi bilan boshlanadi. Asarning ilk satrlaridayoq bu tashrifning insoniy ehtiyojdan ko‘ra xizmat majburiyati va tashkiliy topshiriq natijasi ekani seziladi: “Ishxonadan “Mehribonlik uyi”ga jo‘natishdi... demak, bitiklar kaminaning zimmasida”. Bu jumla muallifning o‘tkir kinoyasi orqali xayriya tadbirining avvaldan rejalashtirilgan, rasmiyatchilik xarakterini ochib beradi. Shuningdek, roviy ruhiy holatining befarqligi (“boshim yorilay deb turgan edi”) ham ushbu tashrifning samimiy ichki ehtiyoj emas, balki majburiy marosim ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur epizodda muallif xayriya va g‘amxo‘rlikning real amaliy yordamdan ko‘ra tashviqot va ko‘rinish darajasida tashkil etilishini fosh etadi. Bu hol rahbarning zalga qarata aytilgan nutqida, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi: “Bolalarim! O‘g‘il-qizlarim! ...

istagan beshtasini, yo‘q, o‘ntasini uyimga olib ketishga tap-tayorman!”⁵⁵. Nutqning pafosli chiqishi va zalda qarsaklar bilan qarshi olinishi gumanistik mas’uliyatdan ko‘ra omma oldida o‘zini namoyon etishga qaratilgan vatanparvarlik va g‘amxo‘rlik mexanizmini namoyon qiladi. Biroq shu zahotiyoq rahbarning keyingi gapi, bu yerda sharoitlar “Mening kulbanga nisbatan besh, yo‘q, o‘n barobar yaxshi”⁵⁶ ekani — aytilgan va‘da bekorligini oqlovchi ritorik burilishga aylanadi. Natijada mehr bayon etiladi, ammo mas’uliyat bekor qilinadi.

Shu tariqa ijtimoiy muammo ikki qatlamda namoyon bo‘ladi: birinchidan, yetim bolalarga e‘tibor tizimli yordam sifatida emas, tadbir, nutq va qarsaklar orqali moslashtiriladi; ikkinchidan, bola jarayonning subyekti emas, balki marosim obyektiga aylanadi — u zalga olib kiriladi, u haqda gapiriladi, biroq uning real ehtiyojlari va shaxsiy ovozi e‘tibordan chetda qoladi. Natijada “mehr” ijtimoiy harakat emas, balki kommunikativ effekt — obro‘ va imidj ishlab chiqaruvchi vositaga aylanadi.

Asarda jurnalistika instituti ham tanqidiy ko‘zguda tasvirlanadi. Roviychi uchrashuvdan “tuzukroq fakt olib ulgurmaganini” tan oladi. Biroq shunga qaramay “uch qog‘ozlik maqola”ni tezda yozib tashlaydi. Bu yerda muallif matbuot faoliyatining mazmundan ko‘ra shaklga, tahlildan ko‘ra shiorga moyilligini ochadi. Sarlavhaning o‘ziyoq buni tasdiqlaydi: “Biz bormiz, sen aslo e‘tiborsiz qolmayсан, Sunnat!”⁵⁷. Shu nuqtada muallif “so‘z”ning ikki holatini qarama-qarshi qo‘yadi: bir tomonda — tez yoziladigan, jimjimador imzolar bilan bezatiladigan so‘z—shior; ikkinchi tomonda esa e‘lon qilingach bola ongida real hayotiy ishonch va talabga aylanuvchi so‘z—va‘da.

Sunnatning keyingi da‘vosi aynan shu ziddiyatdan tug‘iladi: “Axir... ‘Biz bormiz...’ deb yozdilaringiz-ku”⁵⁸. Demak, “yetim so‘z” iborasi shunchaki badiiy topilma emas, balki ijtimoiy etika mezonidir: aytilgan so‘zning axloqiy javobgarligi mavjud. Muallif matbuot shiorbozligi bolaga umid berganini, biroq bu umid amalda rad etilganini ko‘rsatadi; aynan mana shu nomuvofiqlik ijtimoiy fojiga aylanadi.

Hikoya kuchli satirik mexanizmga tayangan: tadbirda “bolalarim, o‘g‘il-qizlarim” deya hayqirgan rahbarlar real vaziyatda birinchi bo‘lib chekinadi. Bu chekinish yakuniy epizodda ayniqsa chuqur ma‘no kasb etadi. “Mehribonlik uyi”ga qayta tashrif chog‘ida bolalar kompyuter mashg‘ulotida o‘tirgan sahna tashqi tomondan osoyishta va tartibli ko‘rinadi. Biroq Sunnat bilan yuzma-yuz kelish lahzasi ichki dramatzmni ochadi: “Sunnatning yoniga bordim... Ammo bolakay menga mutlaqo e‘tibor

⁵⁵ Abduqayum Yo‘ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo‘ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 126 b. (176 b.)

⁵⁶ Abduqayum Yo‘ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo‘ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 126 b. (176 b.)

⁵⁷ Abduqayum Yo‘ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo‘ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 128 b. (176 b.)

⁵⁸ Abduqayum Yo‘ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo‘ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 132 b. (176 b.)

bermadi, baayni yonida begona, notanish odam turganday...⁵⁹. Bu sukut — bolaning eng keskin javobi, shior va va'dalarga nisbatan ichki norozilik va begonalashuvning ifodasidir. Shu sababli roviy va rahbarning ishxonaga qadar “miq etmay” kelishi ham ma'nolidir: bu sukut — jamiyatning o'z so'zlari oldidagi o'jizligining ramzi.

Asarning finalida “yetim so'z” tushunchasi yangi semantik darajaga ko'tariladi. Sunnat endi shiorlar o'yini ichida yuruvchi passiv obyekt emas; u vaziyatni anglagan va kattalar so'zining ishonchsizligiga sukut orqali munosabat bildirgan subyektdir. Shu bilan birga, kattalarning “mehri” shartli ekani fosh bo'ladi va bola uchun so'z qadrsizlanadi — bu umidning sinishidir. Natijada “yetim so'z” endi maqola sarlavhasi yoki ritorik figura emas, balki ijtimoiy munosabatning bevosita natijasiga aylanadi: jamiyat so'zining yetimligi “Yetim so'z” ijtimoiy masalani sentimental ohangda emas, balki institutsional va axloqiy yo'nalishda ochib beradi. Asarda yetim bolaga yordam berishning o'zi emas, balki jamiyatning bu masalani nutq darajasida “hal qilib qo'yishi”, amalda esa mas'uliyatdan qochishi keskin fosh etiladi. Muallifning asosiy g'oyasi shundan iboratki, yetimning eng katta muammosi moddiy ta'minot yetishmasligi emas, balki kattalar so'zining ishonchsizligidir; shiorlar ko'paygan sari bola hayotidagi real tayanchlar kamayib boradi.

A.Yo'ldosh hikoyalarida ijtimoiy ziddiyatlar jamiyat miqyosida bayon qilinmaydi; ular oila makonida — jimlik, kundalik tashvish, tana reaksiyasi, uyqu va dorilar fonida ko'rinadi. Bu masalar A.Yo'ldosh “Yo'l qo'ymayman!..” hikoyasida ijtimoiy muammolar munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Yozuvchi muammoni “nutq” bilan emas, holat bilan beradi. Buni quyidagi lavha tasdiqlaydi: erning “Yo'l qo'ymayman...” deya pichirlashi, ingrab qo'yishi, labini “qonaguday” tishlashi psixologik bosimning jismoniy lashgan belgilaridir: “Ora-sira nimagadir: «Yo'l qo'ymayman... Yo'l qo'ymayman...» — deb pichirlagan kezlari qiynalib ingrab qo'yayotgan, quyi labini qonaguday mahkam tishlayotgan erining boshida tongga qadar o'tirib chiqdi...”⁶⁰. Bu epizod ijtimoiy muammo “bahs” shaklida emas, ruhiy zo'riqish va tana og'rig'i ko'rinishida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Demak, asarda ijtimoiy muammo — psixologik va fiziologik darajaga qadar kirib borgan “ichki tizim”dir.

Hikoyadagi eng muhim ijtimoiy belgilaridan biri — muammo “hal bo'lgandek” ko'rinadi, lekin aslida kommunikatsiya batamom uziladi. Muallif buni keskin ijtimoiy tashxis sifatida beradi: “Shu bilan oradagi tushunmovchilik barham topganday bo'ldi. Er-xotin bu haqda qaytib og'iz ochishmadi. To'g'rirog'i, bolalar, ro'zg'or tashvishlaridan boshqa mavzularda endi mutlaqo gaplashmay qo'yishdi”⁶¹. Bu satrlar

⁵⁹ Abduqayum Yo'ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo'ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 142 b. (176 b.)

⁶⁰ Abduqayum Yo'ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo'ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 168 b. (176 b.)

⁶¹ Abduqayum Yo'ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo'ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 168 b. (176 b.)

oila ichidagi mojaroni “tinchlilik” deb qabul qilish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, bu — sust repressiya (jimlik orqali jazolash, hislarni tan olmaslik) holati. Ijtimoiy ma’noda esa bu: er-xotin munosabatining shaxsiy muloqotdan mahrum bo‘lishi; “ro‘zg‘or”ning ma’naviy aloqani bosib ketishi; bolalar fonida saqlanayotgan, ammo hal bo‘lmagan ziddiyatlar kabi muammolarni anglatadi. Shunday qilib, muallif “oila qadriyati” ni ideallashtirmaydi; u oilada gaplashmaslikning o‘zi ijtimoiy muammo ekanini ko‘rsatadi. “...tuyqusdan: “Yo‘l qo‘ymayman!” - deya chinqirgancha o‘rnidan otilib turib ketdi. Bosinqiragan bo‘lsa kerak, bechora...”.

Bu joyda “yo‘l qo‘ymaslik” endi irodaviy qaror emas, bosinqirish shaklida qaytadigan ruhiy jarohatdir. Ijtimoiy qatlamda esa bu holat shuni anglatadi: shaxs jamiyat va oila bosimi oldida real harakat qila olmagach, qarshilik orzu/uyqu/ong ostiga ko‘chadi. Ya’ni muallif ijtimoiy muammoning eng og‘ir oqibatini ko‘rsatadi: insonning subyektivligi sinadi, natijada “qaror” ham, “so‘z” ham amaliy kuchini yo‘qotadi.

Hikoyaning bu qismida eng kuchli ijtimoiy signal — singilning turmushi yurishmay, “ko‘rpa-to‘shagini yuklab” qaytib kelishi: “...singlisining turmushi bo‘lmaganini, u ko‘rpa-to‘shaklarini yuklab ortga qaytganini eshitganida...”⁶².

Bu detal oddiy syujet epizodi emas; u jamiyatda ayolning nikohdagi barqarorligi ko‘pincha: ijtimoiy tamg‘a (ajrashgan ayol maqomi), iqtisodiy zaiflik, “qaytib kelish”ning uyatga aylanishi bilan o‘lchanishini ko‘rsatadi. Shu nuqtada hikoya oilaviy drama doirasidan chiqib, ayol taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy-kulturologik muammoga ulanadi. “Er aniq eslolmaydi: cho‘chib uyg‘onib ketgan xotini ildam borib yo uyqu dori olib keldi, yo asablarni tinchlantiruvchi boshqa dori. Ishqilib, nima bo‘lganda ham ta’sir qildi”⁶³. Bu qismda xotin eriga “uyqu dori” yoki “asabni tinchlantiruvchi” dori olib keladi. Bu epizod ijtimoiy tahlilda ikki qirrali mazmun kasb etadi: G‘amxo‘rlikning minimal shakli: xotin baribir erining holatiga befarq emas — u parvarish qiladi. Muammoni muhokama qilish o‘rniga uni bostirish: dori “tushunish”ning o‘mini egallaydi, ya’ni psixologik krizis kommunikativ yo‘l bilan yechilmaydi, farmakologik jimlik bilan to‘xtatiladi. Demak, hikoya zamonaviy oilada muammolarni hal qilish madaniyati emas, muammoni ko‘mib qo‘yish odati kuchayganini ko‘rsatadi. Bu esa ijtimoiy-ma’naviy muhitning buzilgan ko‘rinishidir.

Shunday qilib A.Yo‘ldoshevning “Yo‘l qo‘ymayman” hikoyasida oila mojarosi so‘z bilan tugamaydi, u “barham topganday” bo‘lib, aslida ruhiy halokatga aylanadi. Erning: pichirlashi, labini tishlashi, bosinqirish bilan uyg‘onishi, dori bilan “tinishi” — bularning barchasi ijtimoiy muammoning (nazorat, manipulyatsiya, qadrsizlantirish) inson ruhiyatida travmaga aylanganini ko‘rsatadi. Shu tariqa Abduqayum Yo‘ldosh ijtimoiy muammoni “kim aybdor?” shaklida emas, “muammo insonni nimaga

⁶² Abduqayum Yo‘ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo‘ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 168 b. (176 b.)

⁶³ Abduqayum Yo‘ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo‘ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 168 b. (176 b.)

aylantiradi?” shaklida qo‘yadi. Bu esa hikoyani ijtimoiy-psixologik realizm doirasida ilmiy tahlil qilishga imkon beradi.

A.Yo‘ldoshning “Parim bo‘lsa...” hikoyasi ijtimoiy masalalarni individual fojia orqali ochib, quyidagi muammolarni badiiy umumlashtiradi. Qishloq va shahar o‘rtasidagi ijtimoiy nomutanosiblik; iqtisodiy muvaffaqiyat va ma‘naviy tanazzul ziddiyati; mish-mishning ijtimoiy zo‘ravonlikka aylanishi; jamiyat tan olmaydigan, ammo axloqan yuksak sadoqat fenomeni.

Bu hikoya to‘g‘risida adabiyotshunos B.Karim quyidagicha fikr bildiradi: “Asar boshida zarurat yuzasidan shaharga tushib, o‘z qishloqdoshlarining barcha yumushlariga yordam berib yuradigan bir yigit gavdalantiriladi. Adib uning ta‘rifini keltiradi: puxta kiyinishi, yaltillagan oyoq-qopisi, shaharlik mirshablar bilan erkin muomalasi va barcha muammolarga osongina yechim topish qobiliyati. So‘ngra muallif asosiy voqelikka o‘tib, o‘z qahramonini sahnaga olib chiqadi. U ishq dardiga yo‘liqqan odam; balet teatrining aktrisasini sevib qolgan kishi. Ishq ko‘chasiga kirgan odam telbalanadi”⁶⁴. Asar ijtimoiy muammolarni shior orqali emas, balki inson taqdiri, sukut va fidoyilik orqali ochgani bilan akademik jihatdan yuksak ahamiyat kasb etadi. Hikoyada ijtimoiy makonlar qarama-qarshiligi, avvalo, qishloq va shahar obrazlarining semantik tafovuti orqali ochiladi. Ibodulla qishloqda yashab, ruhan shaharga mansub shaxs sifatida tasvirlanadi “Umri kindik qoni to‘kilgan ovulida o‘tayotgan bo‘lishiga qaramasdan Ibodulla shahar jinnisi edi”⁶⁵. Bu jumla qahramonning geografik emas, ruhiy migratsiyasini ifodalaydi. Shahar Ibodulla uchun real yashash joyi emas, balki ramziy erkinlik va o‘zlikni anglash makonidir. Qishloq esa aksincha, yopiq va kollektiv nazorat kuchli bo‘lgan muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, hikoya oxirida Ibodullaga nisbatan shakllangan munosabatlar buni yaqqol tasdiqlaydi. “Endi qishloq ahli uni odam qatoriga qo‘shmasligi aniq”⁶⁶. Muallif shu orqali qishloqni axloqiy adolat maskani emas, balki ijtimoiy hukm chiqaruvchi muhit sifatida talqin qiladi. “Adabiyot va san’atda yana bir tur ijobiy obrazlar borki, ular sinfiy va milliy uyg‘onish tarzida tasvirlangan bo‘ladi. Bunday obrazlar muayyan hayot sharoitida, ijtimoiy muhitda o‘zining haq-huquqlarini taniy boshlaydi, ba‘zan esa ana shu haq-huquqlar uchun kurash ham e‘lon qiladi”⁶⁷. G‘aniboy obrazi mustaqillikdan keyingi jamiyatda shakllangan “yangi o‘zbek” ijtimoiy tipining badiiy ifodasidir. U moddiy jihatdan muvaffaqiyatli bo‘lsa-da, ichki barqarorlikka ega emas. Hikoyada bu ziddiyat ochiq ko‘rinadi. “Pul topib, aql topmagan bechora G‘aniboy...”⁶⁸. Mazkur jumla iqtisodiy yuksalish bilan ma‘naviy tanazzul o‘rtasidagi nomutanosiblikni umumlashtiradi. G‘aniboyning balet va san’atga telbalarcha berilishi

⁶⁴ Karim, Bahodir. Istiqol adabiyoti: nazm va nasr [matn]. — Toshkent: “Firdavs-shoh” nashriyoti, 2021. — 79 b. (146 b.)

⁶⁵ Puankare [Matn]: hikoyalar/ Abduqayum Yo‘ldosh. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - 3 b. (176 b.)

⁶⁶ Puankare [Matn]: hikoyalar/ Abduqayum Yo‘ldosh. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - 3 b. (176 b.)

⁶⁷ Qo‘shjonov, Matyoqub. Tanlangan asarlar: adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar. – T.: “Sharq”, 2018. – 315 b. (712 b.)

⁶⁸ Puankare [Matn]: hikoyalar/ Abduqayum Yo‘ldosh. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - 3b. (176 b.).

moddiy boylik bilan to'ldirib bo'lmaydigan ruhiy bo'shliqning natijasidir. Bu holat uning ijtimoiy qulashiga olib keladi.

Hikoyaning eng keskin ijtimoiy masalalaridan biri — mish-mishning shaxs taqdirini belgilovchi kuchga aylanishidir. G'aniboy fojiasidan so'ng haqiqat emas, balki taxmin va uydirmalar ustuvor bo'ladi:

“Sho'rlik G'aniboyni shaharga anavi “shaharlik” Ibodulla olib borgan ekan”⁶⁹. Bu kabi jumlar jamiyatning aybni aniqlashga emas, aybdor yaratishga moyilligini ko'rsatadi. Natijada Ibodulla jamiyat tomonidan stigmatizatsiya qilinadi: “Ba'zilar atay unga eshittirib: “Buzuq...” deb g'o'ldirab qo'yishardi”⁷⁰. Muallif bu orqali jamiyatni axloqiy mezonlar asosida emas, ijtimoiy zo'ravonlik mexanizmi sifatida talqin qiladi.

Hikoya erkaklik masalasini ham ijtimoiy kontekstda ochadi. G'aniboy erkaklikni ehtiros va qurbonlik bilan tasdiqlamoqchi bo'lsa, Ibodulla erkaklikni sadoqat va sukut orqali namoyon etadi. Buni uning oxirgi harakatlari yaqqol ko'rsatadi. “Ibodulla oyda bir-ikki marta gul ko'tarib teatrqa borishni kanda qilmaydi”⁷¹. Bu xatti-harakat jamiyat tomonidan tan olinmasa-da, axloqiy jihatdan yuksak pozitsiyani anglatadi. Ibodulla uchun bu harakat foyda emas, balki vijdon masalasidir.

Balet hikoyada ikki bosqichli ijtimoiy talqinga ega. Avval G'aniboy uchun san'at — sarob va qutqaruv umidi, keyin esa telbalik manbaiga aylanadi. Ibodulla uchun esa balet yakunda axloqiy xotira makoni vazifasini bajaradi. “G'aniboydan deb o'ylasin-da”. Bu jumla san'atning ijtimoiy emas, axloqiy vazifa bajarishga o'tganini bildiradi. Ibodulla balet orqali jamiyat rad etgan insonni unutmaslikni tanlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytsak, Abduqayum Yo'ldosh hikoyalarida ijtimoiy muammolar ochiq ijtimoiy bahs yoki bevosita publitsistik tanqid shaklida emas, balki shaxs ruhiyatiga chuqur singib ketgan ichki ziddiyatlar orqali badiiy umumlashtiriladi. Yozuvchi jamiyatdagi nosog'lom holatlarni tashqi shov-shuvli voqealar bilan emas, balki kundalik hayotda sezilmaydigan, ammo inson ongini yemiruvchi ijtimoiy mexanizmlar orqali ochib beradi. Shu bois uning hikoyalarida ijtimoiy muammo ko'pincha sukut, ichki qarshilik va ruhiy siqilish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

“Yetim so'z” hikoyasida jamiyat nutqining axloqiy javobgarliksizligi, so'z va amal o'rtasidagi uzilish insoniy munosabatlarning yemirilishiga olib keluvchi omil sifatida tasvirlanadi. “Yo'l qo'ymayman!” hikoyasida oilaviy kommunikatsiyaning uzilishi, bir-birini eshitmaslik va bosinqiragan qarshilik shaxsni ichki yolg'izlikka mahkum etuvchi holat sifatida ochiladi. “Parim bo'lsa...” hikoyasida esa mish-mish, gumon va jamoaviy hukmning inson taqdirini belgilovchi kuchga aylanishi ko'rsatilib, jamiyat ongidagi axloqiy zo'ravonlik fosh etiladi. Bu asarlarda ijtimoiy muammo insonni asta-

⁶⁹ Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo'ldosh. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - 3 b. (176 b.)

⁷⁰ Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo'ldosh. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - 3 b. (176 b.)

⁷¹ Abduqayum Yo'ldosh. Puankare. hikoyalar / - Toshkent: Akademnashr, 2022. - 3 b. (176 b.)



sekin subyektivlikdan mahrum qiluvchi, uni ichki jihatdan sindiruvchi tizim sifatida talqin etiladi.

Abduqayum Yo'ldosh hikoyalari ijtimoiy muammo "kim aybdor?" degan soddalashtirilgan savol orqali emas, balki "jamiyat insonni qanday holatga olib kelmoqda?" degan chuqur estetik-axloqiy savol orqali qo'yiladi. Yozuvchi sukut poetikasi, ramziy detallar va psixologik tafsilotlar yordamida rasmiyatchilik, mas'uliyatsizlik va axloqiy befarqlikning inson ruhiyatiga ko'rsatayotgan bosimini badiiy jihatdan aniq va ta'sirchan ifodalaydi. Shu jihatdan Abduqayum Yo'ldosh hikoyachiligi zamonaviy o'zbek adabiyotida ijtimoiy muammolarni shaxs ichki olami bilan uzviy bog'liq holda yoritgan, ijtimoiy-psixologik realizmga xos yetuk badiiy hodisa sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karim, Bahodir. Istiqlol adabiyoti: nazm va nasr [matn]. — Toshkent: "Firdavs-shoh" nashriyoti, 2021. — 79 b. (146 b.)
2. Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo'ldosh. - Toshkent: Akademnashr, 2022. -3 b. (176 b.)
3. Qo'shjonov, Matyoqub. Tanlangan asarlar: adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar. – T.: "Sharq", 2018. – 315 b. (712 b.)
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Quronov, Dilmurod. Nazariy qaydlar. – Toshkent: Akadem-nashr, 2018.
6. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб. – Тошкент: Маънавият, 1998.
7. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006.
8. Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.
9. Рахмонова Х. Хуршид До'stmuxammad nasri badiiyati (adib qissa va hikoyalari misolida). – Toshkent: "Poytaxt eksslusiv", 2021.